

NAVOIY IJODINING BETAKROR JOZIBASI

Raxmatova Dilafruz Payzullayevna, katta o'qituvchi**Qarshi xalqaro universiteti****rahmatovadilafruz8@gmail.com****ORCID: 0009-0007-6016-0902**

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning boy adabiy merosi, xususan, shoir asarlarining yosh avlod ma'naviy kamolotidagi o'rni tahlil qilinadi. Navoiy ijodidagi insonparvarlik, tinchlik, hamjihatlik va adolat g'oyalariga urg'u beriladi. Maqolada shoirning "Xamsa", "Mahbub ul-qulub", "Sab'ai sayyor" kabi asarlaridan namunalar keltirilib, Farhod va Iskandar kabi obrazlar orqali ilm-ma'rifat va ustozga ehtirom fazilatlari yoritiladi. Shuningdek, zamondosh ijodkorlarning e'tiroflari asosida Navoiyning turkiy til ravnaqi yo'lidagi xizmatlari ko'rsatib beriladi. Mazkur material Navoiy merosini o'rganuvchi yoshlar va pedagoglar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Tayanch so'zlar: Alisher Navoiy, komil inson, tarbiya, "Xamsa", Farhod, Iskandar, adolat, ustoz, ma'naviyat, zullisonayn.

Muqaddas diyorimiz zaminidan yetishib chiqqan o'nlab aziz avliyolar, ulug'alloma va shoirlar, davlat arboblari va sarkardalarning har biri o'z faoliyati, betakror ijodiy me'rosi bilan milliy va umuminsoniy madaniyatga o'lkan hissa qo'shganligi barchamizga sir emas. Ayni vaqtda bu benazir zotlar orasida go'yoki yulduzlar anjumanidagi quyoshdek yaqqol ajralib turadigan bir buyuk siymo borki, u milliy she'riyatimiz, adabiyotimiz dahosi Mir Alisher Navoiy bobomizdir. Mutafakkir shoir Navoiy bobomizning asarlari qariyb olti asrki olam ahlini hayratga solib kelmoqda. So'z sehri va qudratini, ona tilimizning beqiyos imkoniyatlarini o'zida namoyon etgan shoirning ulkan adabiy merosi yuksak ehtirom, zo'r qiziqish bilan

o‘rganib kelinmoqda. Alisher Navoiy turkiy xalqlar adabiyotining eng mashhur vakilidir. Chunki hech kim bu til va adabiyotning ravnaqi uchun uningdek xizmat qilolgan emas.

Zamondoshi Zahiriddin Bobur o‘zining – “Boburnoma” asarida – “Alisherbek naziri yo‘q kishi erdi, turkiy til bila to she‘r aytubdurlar, hech kim oncha ko‘p va xo‘p aytgon emas”, - deya Alisher Navoiyga yuksak baho berilgan. Bobur Navoiy bilan uchrashmagan bo‘lsa-da, lekin yoshligidan uning shaxsiga va ijodiga katta mehr - muhabbat bilan tarbiya topgan.

Navoiy nafaqat turkiy til, balki, forsiy tilda ham ijod qilgan zullisonayn shoirdir. Shunday ekan, insoniyat tafakkuri rivojini Alisher Navoiy siymosi uni yetti iqlimga ma‘lum va mashhur adabiy-ilmiy merosisiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Alisher Navoiy asarlarida xalq hayotining turli jabhalari chuqur aks ettirilgan. Shoir she‘riyati tinchliksevarlik, hamjihatlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan, insonni yovuzlik va jaholatga qarshi kurashga chorlaydi.

Bolalarni – “Hayot chiroqlari” deb aytgan shoir, ularning shaxs sifatida shakllanishida, komil inson bo‘lib yetishishlarida ta‘lim-tarbiya zarur, tarbiyani beshikdan, ya‘ni insonning go‘dakligidan boshlash zarurligini ta‘kidlaydi. Bu masala kattalar jumladan, ustozlar zimmasidagi bajarilishi lozim bo‘lgan ishdir, deb hisoblaydi. Navoiy bobomiz ustozni ulug‘lab shunday deganlar:

Haq yo‘linda kim sanga bir harf o‘qutmish ranj ila,

Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Birgina mana shu bayt orqali Navoiy, ustozning qanchalik ulug‘ligi -yu, bu ulug‘lik ortida mashaqqat borligini, bu ulug‘ zot oldidagi qarzni ado etolmaslikni ifoda etiirgan. Shu kabi ko‘plab ibratli, hikmatli so‘zlari yosh avlod tarbiyasida muhim o‘rin egallamoqda.

Alisher Navoiy ilmni olam va odamni idrok etish vositasi, inson kamolotining kaliti deb bilgan. Bu hikmatga bir umr amal qilgan. Uning asarlari yosh avlod kamolotida muhim ahamiyatga ega. Bunga esa, mutoalaa va tafakkur bilan erishish mumkin. Navoiyning o‘zi shunday yozadi:

Ki har neni bilmish odamizod,
Tafakkur birla qilmish odamizod.

Alisher Navoiy yaratgan asarlar orasida eng buyugi “Xamsa”dir. Navoiy bu asari bilan fors tili soyasida siqilib qolgan turkiy (o‘zbek) tilning go‘zalligi va bebaholigini isbotlab berdi.

O‘z davrining madaniy hayotiga rahbarlik qilgan Navoiy bobomiz umrini xalq baxt saodati, xalq osoyishtaligi, yurt obodligi, ilm-fan rivoji, san‘at va adabiyot taraqqiyotiga bag‘ishlagan. Navoiy – Inson-hayot gultojidir, u ilm olish, hunar egallash uchun qilgan mehnati, chekkan mashaqqati orqali o‘z kamolotiga erishadi, deydi. Buning uchun to‘g‘ri tarbiya zarur, tarbiyani insonning dastlabki yillaridan boshlamoq kerak, deb hisoblaydi.

Shoir asarlarida insoniy fazilatlarni ulug‘lab, noma‘qul illatlarni tanqid qiladi, yoshlarni rostgo‘y, halol, ilm-hunarli, odil, mard, saxiy, mehnatsevar, vatanparvar bo‘lishga, yolg‘onchi va egri, tanbal va dangasa, beor va beandisha bo‘lmaslikka undaydi. Zero o‘z davrida dolzarb bo‘lgan bu masala bizning zamonamizda ham katta ahamiyatga ega.

Farhod egallamagan hunar, o‘rganmagan ilm yo‘q bo‘lsa kerak. Shoir uni bir o‘qigan narsasi haqida qayta kitob varaqlashga hojat yo‘q, deb ta‘riflaydi. Farhodning bolalikdan tirishqoqligi, mehnatsevarligi, aql - odobi, ilm - fan egallashga bo‘lgan ishtiyoqi, o‘zgalarga bo‘lgan samimiy munosabati, ota-onasiga, ustozlariga bo‘lgan hurmati, xalq g‘amini o‘ziniki deb bilishi, yot begunalarga ham yordam qo‘lini cho‘zishi mehnatdan, mashaqqatdan qochmasligi menga juda yoqadi. Hazrat Navoiy Farhodni ilm-ma‘rifatli, bir qancha hunarlar egasi sifatida gavdalantirigani bejizga emas, albatta. Inson kim bo‘lishidan qat‘iy nazar xoh u shoh bo‘lsin, xoh u gado ilm egallashi shart deb uqtiradi.

Navoiy asarlarida o‘z orzusidagi komil insonni ma‘rifatparvar va adolatparvar, donishmand va odil shoh timsolida tasvurlagan. Navoiy bobomiz bu fikrlarini umri so‘ngida bitilgan nasriy asari – “Mahbul ul-qulub”da ham davom ettirib, shunday

yozadi: – “Adolatli podshoh haq taoloning xaloyiqqa ko‘rsatgan marhamatidur” bunday shoh mamlakat uchun tinchlik va farovonlik sababchisidir....

Odil shoh quyosh bilan bahor yomg‘iridek qora tuproqdan gullar ochadi va mamlakat xalqi boshiga oltin bilan durlar sochar...”

Hazrat Navoiy orzusidagi shohni Iskandar obrazi orqali badiiy jonlantiradi. Alisher Navoiy Iskandarni jismonan baquvvat, ma‘nan barkamol, ilm-ma‘rifatli va adolatli, haqsevar va xalqsevar shoh, uning davlati gullab-yashnagan, mustahkam, xalqi bo‘lsa to‘q - farovan hayot kechiradi, aholisi ilm - ma‘rifat, kasb-hunar egasi sifatida tasvirlanadi.

Navoiyning sara asarlaridan yana biri bu – “Sab‘ai sayyor” dostonidir. Asarni o‘qish davomida shunday xulosaga keldimki, manmanlikning oxiri xorlik, inson hamma narsaga erishadi, Dilorom go‘yoki zo‘r tajriba mahsulini isbotlagani kabi.

Xalqimizda – “Yoshlikda olingan bilim, toshga o‘yilgan naqshdir”- degan naql bor. Bu purma‘no fikrning zamirida hamma narsani bolalikdan o‘qib-o‘rganish, hech bo‘lmaganda, ko‘nikma hosil qilish g‘oyasi yotadi. Shunday ekan, adabiyotimizning nurli cho‘qqisi bo‘lgan Alisher Navoiy asarlarini ham bolaligimizdan o‘rganishimiz zarur. Shu o‘rinda sevimli shoirimiz Sirojiddin Sayyidning quyidagidagi misralarini keltirish joizdir:

Har bir bola, har bir yosh

Navoiyni bilishi kerak.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, buyuk shoirning o‘lmas asarlaridagi yurt tinchligi va osayishtaligini, insonlar va xalqlar orasidagi do‘stlik, ahillik, ta‘lim-tarbiyaga oid fikr - mulohazalari bugungi kunda ham qimmatlidir. Navoiy asarlaridan ibrat oladigan jihatlar anchagina, agar ularning hammasiga amal qilsak va buni o‘quvchilar ongiga singdira olsak, farzandlarimizning komil inson bo‘lib yetishishi muqarrardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alisher Navoiy – “Xamsa” Toshkent 1990, 1991 yillar

2. Aziz Qayumov – “Alisher Navoiy” Toshkent —Kamalak|| nashriyoti 1991-yil
3. O`tkir Rahmatov – “Abadiyat gulshani” 2-kitob Toshkent 2016-yil
4. S. Matchonov, Sh.Sariyev – “Adabiyot” Toshkent 2011-yil